


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **524,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **23,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **44,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **501,6** mlrd. so'mni (**2,8 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **55,5** mlrd. so'mni (**1,4 %** ga o'sdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **524,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **97,2 %** ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahridan tashqari barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **95,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **4,4 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **23,5 %** ulush bilan **123,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.





ENG QUYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mo'ynoq tumani **0,8 %** ulush bilan **3,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **501,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **2,8 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **95,6 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qonliko'l (99,8 %), Kegayli (99,6 %), Taxtako'pir (99,4 %), Qorao'zak (99,4 %), Shumanoy (99,4 %), Nukus (99,3 %), Mo'ynoq (99,1 %) va Bo'zator tumanlarida (99,1 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Nukus shahridan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar To'rtko'l (104,2 %), Qorao'zak (103,9 %), Taxiato'sh (103,8 %) va Qo'ng'iro't tumanlarida (103,6 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|------------------|---|------------------------------|---|--|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 524,7 | 97,2 | 23,1 | 44,3 | 501,6 | 102,8 |
| Nukus shahri | 123,5 | 83,5 | 10,1 | 27,1 | 113,4 | 102,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Amudaryo | 39,2 | 103,0 | 2,1 | 115,6 | 37,0 | 102,3 |
| Beruniy | 56,6 | 101,5 | 1,7 | 134,8 | 54,9 | 100,8 |
| Bo'zatov | 4,1 | 101,3 | 0,0 | - | 4,0 | 100,4 |
| Qonliko'l | 16,0 | 102,5 | 0,0 | 2,3 | 16,0 | 111,7 |
| Qorao'zak | 20,7 | 103,9 | 0,1 | 4,8 b. | 20,6 | 103,4 |
| Kegayli | 19,3 | 102,9 | 0,1 | 117,9 | 19,3 | 102,9 |
| Qo'ng'iro't | 37,9 | 103,6 | 2,2 | 43,2 b. | 35,8 | 97,8 |
| Mo'ynoq | 3,9 | 101,7 | 0,0 | 71,2 | 3,9 | 102,1 |
| Nukus | 12,6 | 100,9 | 0,1 | 142,3 | 12,5 | 100,6 |
| Taxiato'sh | 13,3 | 103,8 | 1,7 | 81,2 | 11,5 | 108,4 |
| Taxtako'pir | 15,0 | 101,5 | 0,1 | 15,2 | 14,9 | 104,9 |
| To'rtko'l | 53,4 | 104,2 | 2,3 | 46,8 | 51,1 | 110,2 |
| Xo'jayli | 47,7 | 100,4 | 0,9 | 82,4 | 46,8 | 100,8 |
| Chimboy | 20,4 | 102,4 | 0,7 | 78,4 | 19,7 | 103,5 |
| Shumanoy | 10,7 | 101,1 | 0,1 | 164,8 | 10,7 | 100,9 |
| Ellikqal'a | 30,4 | 101,2 | 0,9 | 137,6 | 29,5 | 100,4 |

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **44,3 %** ni va **23,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **501,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **2,8 %** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **95,6 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

| | | |
|-------------|------|------|
| Nukus sh. | 8,2 | 91,8 |
| Ellikqal'a | 3,0 | 97,0 |
| Shumanoy | 0,6 | 99,4 |
| Chimboy | 3,3 | 96,7 |
| Xo'jayli | 1,9 | 98,1 |
| To'rtko'l | 4,3 | 95,7 |
| Taxtako'pir | 0,6 | 99,4 |
| Taxiatosh | 13,1 | 86,9 |
| Nukus | 0,7 | 99,3 |
| Mo'ynoq | 0,9 | 99,1 |
| Qo'ng'iro't | 5,7 | 94,3 |
| Kegayli | 0,4 | 99,6 |
| Qorao'zak | 0,6 | 99,4 |
| Qonliko'l | 0,2 | 99,8 |
| Bo'zatov | 0,9 | 99,1 |
| Beruniy | 2,9 | 97,1 |
| Amudaryo | 5,5 | 94,5 |

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Kegayli (99,6 %), Taxtako'pir (99,4 %) va Qorao'zak (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh tumanida (13,1 %), Nukus shahrida (8,2 %), Qo'ng'iro't (5,7 %) va Amudaryo (5,5 %) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA AHOLI
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR‘ATLARI**

2021- yil yanvar oyi holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **274,6** ming so‘m (2020- yil yanvar oyiga nisbatan **4,2** % ga kamaydi) va Nukus shahri, Beruniy, Mo‘ynoq, Nukus, Xo‘jayli va Ellikqal‘a tumanlaridan tashqari boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlarida o‘sish sur‘atlari kuzatildi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qorao‘zak (390,3 ming so‘m), Xo‘jayli (386,4 ming so‘m) tumanlari va Nukus shahri (383,6 ming so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.




| | Hajm, ming so‘m | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da |
|-------------------------------|-----------------|---------------------------------------|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 274,6 | 95,8 |
| Nukus shahri | 383,6 | 82,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 195,8 | 101,4 |
| Beruniy | 293,3 | 99,8 |
| Bo‘zatov | 188,5 | 100,8 |
| Qonliko‘l | 312,3 | 101,1 |
| Qorao‘zak | 390,3 | 103,1 |
| Kegayli | 265,6 | 102,1 |
| Qo‘ng‘irot | 290,0 | 102,2 |
| Mo‘ynoq | 122,7 | 99,8 |
| Nukus | 248,0 | 98,9 |
| Taxiato‘sh | 178,6 | 102,4 |
| Taxtako‘pir | 372,5 | 100,7 |
| To‘rtko‘l | 247,0 | 102,4 |
| Xo‘jayli | 386,4 | 99,1 |
| Chimboy | 180,8 | 101,4 |
| Shumanoy | 190,3 | 100,2 |
| Ellikqal‘a | 189,6 | 99,4 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **55,5 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **1,4 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **31,3 mlrd. so'mni** (o'zgarish sur'ati **100,6 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **24,2 mlrd. so'mni** (o'zgarish sur'ati **102,5 %**) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **31,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **24,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|--|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 55,5 | 101,4 | 31,3 | 100,6 | 24,2 | 102,5 |
| Nukus shahri | 4,2 | 53,1 | 2,4 | 52,7 | 1,8 | 53,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Amudaryo | 2,8 | 45,1 | 1,2 | 35,1 | 1,6 | 58,2 |
| Beruniy | 4,7 | 104,8 | 2,6 | 104,0 | 2,1 | 105,9 |
| Bo'zatov | 2,1 | 126,1 | 1,2 | 125,0 | 0,9 | 127,4 |
| Qonliqo'l | 3,1 | 2,2 b. | 1,8 | 2,1 b. | 1,3 | 2,2 b. |
| Qorao'zak | 5,4 | 138,9 | 3,1 | 137,7 | 2,3 | 140,3 |
| Kegayli | 6,3 | 107,8 | 3,5 | 107,0 | 2,8 | 109,0 |
| Qo'ng'iro't | 3,9 | 72,4 | 2,2 | 71,8 | 1,7 | 73,2 |
| Mo'ynoq | 0,8 | 127,0 | 0,8 | 2,2 b. | - | - |
| Nukus | 2,8 | 116,9 | 1,6 | 115,9 | 1,2 | 118,1 |
| Taxiatosh | 1,0 | 83,4 | 0,6 | 82,7 | 0,4 | 84,3 |
| Taxtako'pir | 2,7 | 119,4 | 1,5 | 118,4 | 1,2 | 120,6 |
| To'rtko'l | 5,3 | 140,6 | 3,0 | 139,5 | 2,3 | 142,1 |
| Xo'jayli | 3,5 | 79,0 | 2,0 | 78,4 | 1,5 | 79,9 |
| Chimboy | 4,0 | 197,2 | 2,2 | 195,7 | 1,8 | 199,3 |
| Shumanoy | 1,3 | 6,6 b. | 0,7 | 6,6 b. | 0,6 | 6,7 b. |
| Ellikqal'a | 1,6 | 169,4 | 0,9 | 168,1 | 0,7 | 171,2 |



0,4
mlrd. so'm

Tuzlamalar



10,0
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



0,6
mlrd. so'm

Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

1,4
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



1,4
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

0,9
mlrd. so'm



Tuxum

3,8
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

0,6
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

0,2
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

0,4
mlrd. so'm



Ziravorlar

11,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**


2021- yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **24,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **19,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **4,2** mlrd. so'mni, otlar **0,1** mlrd. so'mni, parrandalar **0,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 % ni tashkil etib, 14,9 mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar oyiga nisbatan 5,4 % ga o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|------------------|---|------------------------------|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 14,9 | 105,4 | 0,8 | 11,4 b. | 14,0 | 100,2 |
| Nukus shahri | 5,8 | 98,9 | - | - | 5,8 | 80,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Amudaryo | 0,6 | 99,5 | - | - | 0,6 | 100,0 |
| Beruniy | 0,4 | 99,4 | - | - | 0,4 | 100,0 |
| Bo'zatov | 0,1 | 99,1 | - | - | 0,0 | 100,2 |
| Qonliko'l | 0,2 | 96,3 | - | - | 0,2 | 100,0 |
| Qorao'zak | 0,4 | 100,3 | - | - | 0,4 | 100,0 |
| Kegayli | 0,2 | 112,6 | - | - | 0,2 | 117,6 |
| Qo'ng'iro't | 4,1 | 125,7 | 0,8 | - | 3,3 | 100,0 |
| Mo'ynoq | 0,1 | 99,9 | - | - | 0,1 | 100,0 |
| Nukus | 0,1 | 99,7 | - | - | 0,1 | 100,0 |
| Taxiatosh | 0,3 | 99,7 | - | - | 0,3 | 100,0 |
| Taxtako'pir | 0,1 | 98,1 | - | - | 0,1 | 100,0 |
| To'rtko'l | 0,9 | 97,3 | - | - | 0,9 | 100,0 |
| Xo'jayli | 0,8 | 99,3 | - | - | 0,8 | 100,0 |
| Chimboy | 0,4 | 101,7 | - | - | 0,4 | 101,9 |
| Shumanoy | 0,1 | 99,0 | - | - | 0,1 | 100,0 |
| Ellikqal'a | 0,3 | 99,4 | - | - | 0,3 | 100,0 |

2020- yil yanvar

2021- yil yanvar



Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **14,9** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 105,4 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **14,9** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.


| | Jami, mln. so'm | Ulushi, foizda | Nodavlat mulki, mln. so'm | Ulushi, foizda | Davlat mulki, mln. so'm | Ulushi, foizda |
|-------------------------------|--------------------|-------------------|---------------------------------|-------------------|----------------------------|-------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 14 884,1 | 100,0 | 14 884,1 | 100,0 | - | - |
| Nukus shahri | 5 849,6 | 39,3 | 5 849,6 | 100,0 | - | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | | 100,0 | | - |
| Amudaryo | 633,2 | 4,3 | 633,2 | 100,0 | - | - |
| Beruniy | 415,1 | 2,8 | 415,1 | 100,0 | - | - |
| Bo'zatov | 35,4 | 0,2 | 35,4 | 100,0 | - | - |
| Qonliko'l | 222,1 | 1,5 | 222,1 | 100,0 | - | - |
| Qorao'zak | 370,0 | 2,5 | 370,0 | 100,0 | - | - |
| Kegayli | 177,5 | 1,2 | 177,5 | 100,0 | - | - |
| Qo'ng'iro't | 4 132,7 | 27,8 | 4 132,7 | 100,0 | - | - |
| Mo'ynoq | 54,5 | 0,4 | 54,5 | 100,0 | - | - |
| Nukus | 126,1 | 0,8 | 126,1 | 100,0 | - | - |
| Taxiatosh | 311,4 | 2,1 | 311,4 | 100,0 | - | - |
| Taxtakopir | 96,8 | 0,7 | 96,8 | 100,0 | - | - |
| To'rtko'l | 871,9 | 5,9 | 871,9 | 100,0 | - | - |
| Xo'jayli | 806,3 | 5,4 | 806,3 | 100,0 | - | - |
| Chimboy | 388,2 | 2,6 | 388,2 | 100,0 | - | - |
| Shumanoy | 65,9 | 0,4 | 65,9 | 100,0 | - | - |
| Ellikqal'a | 327,4 | 2,2 | 327,4 | 100,0 | - | - |

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **116,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **7,5** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **23,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **96,8** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **92,2** mlrd. so'mni (**8,6** % ga kamayish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

116,1 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

23,9 mlrd. so'm, 20,6 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

92,2 mlrd. so'm, 79,4 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Nukus shahri (111,3 %) va Taxiatioh (5,4 b.) tumanida kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Qo'ng'iro't (94,4 %), Shumanoy (94,2 %) va Kegayli (93,9 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



| | Jami, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm | 2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|--|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 116,1 | 92,5 | 23,9 | 96,8 | 92,2 | 91,4 |
| Nukus shahri | 59,0 | 111,3 | 12,5 | 5,4 b. | 46,5 | 91,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Amudaryo | 1,9 | 89,1 | 0,0 | 23,0 | 1,9 | 91,6 |
| Beruniy | 7,4 | 92,1 | - | - | 7,4 | 92,1 |
| Bo'zatov | 0,2 | 84,7 | - | - | 0,2 | 84,7 |
| Qonliko'l | 2,2 | 92,9 | - | - | 2,2 | 92,9 |
| Qorao'zak | 1,2 | 80,2 | - | - | 1,2 | 80,2 |
| Kegayli | 0,1 | 93,9 | - | - | 0,1 | 93,9 |
| Qo'ng'iro't | 3,9 | 94,4 | - | - | 3,9 | 94,4 |
| Mo'ynoq | 0,3 | 86,6 | - | - | 0,3 | 86,6 |
| Nukus | 8,0 | 90,3 | - | - | 8,0 | 90,3 |
| Taxiatioh | 13,7 | 5,4 b. | 11,4 | 350,7 b. | 2,4 | 93,3 |
| Taxtako'pir | 1,0 | 84,7 | - | - | 1,0 | 85,7 |
| To'rtko'l | 7,4 | 88,9 | - | - | 7,4 | 90,4 |
| Xo'jayli | 2,0 | 8,1 | - | - | 2,0 | 95,5 |
| Chimboy | 1,9 | 84,3 | 0,0 | - | 1,9 | 84,1 |
| Shumanoy | 0,0 | 94,2 | 0,0 | - | 0,0 | 92,9 |
| Ellikqal'a | 5,9 | 92,1 | - | - | 5,9 | 92,1 |




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **92,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **8,6** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **79,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegayli Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli va Ellikqal'a tumanlarida 100,0 % bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (17,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rnini pasayib bormoqda. 2021- yilning yanvar oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **116,1** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **116,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.